

VATANIMIZNI ASRASH BARCHAMIZNING OLIY BURCHIMIZDIR

Temirov Sardorbek Nozimjon o'g'li

Annotatsiya: Oilaviy institut jamiyatning asosiy bloklari yoki qurilishlaridan biri sifatida tan olingan bo'lib, vatanning bir bo'lagidir. Ushbu maqolada Vatanimizni asrash barchamizning oliy burchimiz ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshpana, jonajon vatan, vatanparvarlik, eng oliy burch, xalq, ichki va tashqi xavflar, millatga, azaliy e'tiqod, milliy birlik.

Insoniyat tarixidagi eng rivojlangan davrda yashayapmiz. Fan-texnika taraqqiyoti yangi-yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda, odamlarga qulay shart-sharoitu imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq tinchlik, hayot avvalida bo'lganidek, hozir ham eng tansiq ne'mat. Buni dunyoning har kungi manzarasi insoniyatga bot-bot eslatib turibdi.

Bularning barchasi bizni yagona maqsadga – mamlakatimizda istiqloqlarning ilk yillaridan Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida hayotimizni tinchlik va barqarorlik asosiga qurish, uning negizida taraqqiyotga erishish borasida amalga oshirilgan ishlarning hayotiy samaralarini anglab yetgan va qadrlagan holda xalqimiz tanlagan istiqloq va rivojlanish yo'lini izchil davom ettirishga hissa qo'shib yashashga undaydi.

Yer yuzidagi har bir jonzot tinch va osoyishta yashashi uchun unga eng avvalo bir boshpana va uy-joyga ega bo'lmog'i lozim. Odam bolasining ham huzur halovatda yashashi uchun unga eng avvalo bir boshpana lozim, xalq uchun esa vatan. Vatanisiz xalq yashay olmaydi. Xalqning borligi, uning yashab qolishi o'z vataniga ega bo'lsagina mumkin bo'ladi.

Mehribon ona misoli bizni o'z bag'riga olgan O'zbekiston atalmish yurtimizni oyoq osti qilinmasligi, bayrog'imiz har zamon osmonimiz uzra sarbaland hilpirashi, duogo'ylarimiz rizoligining bardavom bo'lishi, ibodatlarimiz halovati, ko'hna tuproqlarimiz ostida yotgan aziz avliyolarimiz ruhining shodligi, xalqimizning huzuri uchun jonajon Vatanimizga xizmat qilish, uni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz barchamizning bo'ynimizdagi qarzimizdir.

Shu jihatdan mo'min o'z Vatanini sevadigan, unga qalban bog'langan, zarur bo'lganda joni va molini ham vatan uchun fido qilishdan tortinmaydigan insondir. Vatanparvarlik eng ezgu va oliy tuyg'ulardan biridir. Kishi o'z yurtidan uzoqlashganda, uni qumsaydi va sog'inadi.

Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoiyligi Vatanini himoya qilishi taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyati darajasida hissa qo'shish bilan o'lchanadi.

Bugun bizni bir-birimiz bilan bog'lab turgan eng muhim rishtalar Vatan va oila

rishtalaridir. Biz bu ikki masalada befarq bo‘lmasligimiz kerak. Aks holda kelajagimiz xavf ostida. Xalqimizning birligi va hamjihatligi tufayli Vatanimiz yuksalib, davlatimiz quvvat topmoqda. Vatanga, millatga, azaliy e‘tiqodimiz va milliy birligimizga putur yetkazuvchi buzg‘unchilarning so‘zlariga quloq solmaslik, vatanimizni ma‘nan va jismonan ulardan himoya qilmoqlik bugungi O‘zbekiston farzandining eng oliy burchidir.

Inson har qanday sharoitda ham avvalo o‘z yurtini, yashayotgan jamiyatini, keyin esa o‘zini o‘ylashi bu bizga ajdodlarimizdan merosdir. Duogo‘ylarimizning duolariga bir e‘tibor bering: “Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin”. Albatta bu duoning zaminida tariximizdagi og‘ir va musibatli kunlarning og‘riqlari, Vatan, din, millat yo‘lida qurbon bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizning orzulari mujassam. Bu yurt boricha bizniki ekanligini barchamiz yaxshi bilishimiz kerak. Moddiy va ma‘naviy muammolarimizni bartaraf etish, xalqimizni bir-biriga yaxshi va yomon kunlarda ham iymon e‘tiqodida sobit qadam bo‘lib jipslashtirish yo‘lida qalbimiz va aqlimiz bilan, Vatanimizni ichki va tashqi xavflardan asrashimiz kerak.

Dunyo miqyosida yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu bejiz emas. Zero, Ona zaminimizda kechayotgan ziddiyatli jarayonlar yer tuzilmasini tobora o‘zgartirib yuboryapti.

Bugun yoshlarimizning har biri ana shunday ezgu maqsad bilan ulg‘aymoqda. Eng muhimi, ular o‘z hayotini, kelajagini mana shu buyuk va muqaddas Vatanimiz ravnaqi, el-yurtimiz taraqqiyoti va farovonligi bilan uyg‘un ko‘radi. Osuda, xotirjam va farovon hayotimizning qadriga yetib, uni yanada ziyoda qilishni kimningdir buyrug‘i yoki majburiyat deb emas, ko‘nglidagi niyat, doimiy intilajak yorug‘ bir manzil, deb biladi.

Aslida ham Vatanni himoya qilish, mardlik va jasorat ko‘rsatish faqat jang maydonida sodir bo‘lmaydi. Javonmardlik kundalik hayotimizdan, xalqimiz og‘irini yengil qilishdan, o‘z manfaatini el-yurt ravnaqi bilan uyg‘unlashtirishdan boshlanadi. El-yurt or-nomusi va g‘ururini asrash va yuksaltirishni o‘z umrining mazmuni deb bilgan farzandlar barpo etgan hayot qo‘rg‘oni esa doim mustahkam bo‘ladi. O‘z qarashlari va mezonlariga ega, yo‘li oydin, manzili yorug‘ xalq karvonini hech qanday kuch chalg‘it olmaydi. Zotan, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, xalqning qalbida ne-ne ajdodlardan meros yengilmas kuch – ma‘naviyat bor.

Bugun bizni bir-birimiz bilan bog‘lab turgan eng muhim rishtalar Vatan rishtasidir. Biz bu masalada befarq bo‘lmasligimiz kerak. Aks holda kelajagimiz xavf ostida. Insonlar imoratning g‘ishtlaridek bo‘lib, bir-birlarining kamchiliklarini to‘ldirishlari kerak. Xalqimizning birligi va hamjihatligi tufayli Vatanimiz yuksalib, davlatimiz quvvat topmoqda. Vatanga, millatga, azaliy e‘tiqodimiz va milliy birligimizga putur yetkazuvchi buzg‘unchilarning so‘zlariga quloq solmaslik, vatanimizni ma‘nan va jismonan ulardan himoya qilmoqlik bugungi O‘zbekiston

farzandining eng oliy burchidir.

Kishi har qanday sharoitda ham avvalo o‘z yurtini, yashayotgan jamiyatini, keyin esa o‘zini o‘ylashi bu bizga ajdodlarimizdan merosdir. Duogo‘ylarimizning duolariga bir e‘tibor bering: “Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin”. Albatta bu duoning zaminida tariximizdagi og‘ir va musibatli kunlarning og‘riqlari, vatan, din, millat yo‘lida qurbon bo‘lgan ulug‘ ajdodlarimizning orzulari mujassam. Bu yurt boricha bizniki ekanligini barchamiz yaxshi bilishimiz kerak. Moddiy va ma‘naviy muammolarimizni bartaraf etish, xalqimizni bir-biriga yaxshi va yomon kunlarda ham iymon e‘tiqodida sobit qadam bo‘lib jipslashtirish yo‘lida qalbimiz va aqlimiz bilan, Vatanimizni ichki va tashqi xavflardan asrashimiz kerak. Shunday ekan Vatanni asraylik!

Maqolani quyidagi she‘r bilan tugataman:

Bizga teng keldimmi dunyo bollari

Dunyoni titratti o‘zbek bollari

G‘alaba qozondi boksiyorlari

Bir yurishda mot qildi shaxmatchilar

Bizga teng keldimi dunyo bollari

Tinchlikni orzu qilishar edi

Mustaqil bo‘lishni kutishar edi

Dunyoni sindirdi chempionlari

Bizga teng keldimi dunyo bollari

Dunyoni zo‘rib o‘lib keldilar

Yigirma yeti oltin olib keldilar

G‘alaba qozondi futbolchilar

Bizga teng keldimi dunyo bollari

Oddiy askar:

Maxmudov Madiyorbek Mansurbek o‘g‘li